



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 115-124 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAHALLIY BUDJETLAR XARAJATLARINI SAMARALI BOSHQARISH – DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI MOLIYAVIY MUSTAQILIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI



Davlatov Muradbek Saparboyevich
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada mahalliy budjetlar xarajatlarini samarali boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq etilgan. O'zbekiston mahalliy budjetlarining hozirgi holati tahlil qilingan, ularni samarali boshqarishga ta'sir etuvchi salbiy omillar aniqlangan hamda ushbu salbiy omillarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, mahalliy budjet, budjet qoidasi, budjetlar xarajatlari, budjet barqarorligi, fiskal siyosat, ijtimoiy transfert.

Kirish

Har qanday davlat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun budjet qoidasini tanlash bir qator omillarga bog'liq. Birinchidan, ma'lum bir mamlakatda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga davlat xarajatlarining ta'sirining tabiati muhimdir. Ikkinchidan, nomukammal kapital bozorlarida qarzni moliyalashtirish real foiz stavkalarining oshishi tufayli xususiy xarajatlarni davlat xarajatlari bilan siqib chiqarish effektiga olib kelishi mumkin [12].

Ma'lumki, davlat budjeti xarajatlari davlat hokimiyatining turli darajalarida ularga yuklatilgan funksional vazifalarga asoslangan holda budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlanadi. Ushbu taqsimot har qaysi budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar uchun mustahkam daromad bazasi shakllantirilgandagina turli darajadagi budjet tizimi budjetlari barqarorligi ta'minlanadi. Shuning uchun ham mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarishga oid qarorlar qabul qilishda ular zimmasidagi xarajat majburiyatlarini tarkibi va dinamikasini tahlil qilish, xarajatlar ijrosi bilan bog'liq budjet intizomini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Budjet xarajatlari davlatning funksiyalaridan kelib chiqqan holda jamiyat oldidagi vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy mablag'larning taqsimlanishini o'z ichiga oladi. Modomiki, davlat budjeti turli darajadagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy resurslar bazasini tashkil qilar ekan, har qaysi davlat boshqaruv organlariga jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini ta'minlash uchun yuklatilgan vazifalariga muvofiq ravishda budjet tizimining turli darajalari o'rtasida xarajatlarning taqsimlanishini talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi

R. Barro [1] (Barro, 1990) va D. Aschauer [2] (Aschauer, 1989) g'oyalarini ishlab chiqishda budjet xarajatlari strukturasi yetkazilgan zararlarni qoplaydigan ijobiy tashqi ta'sirlarni ta'minlaydigan sohalar foydasiga qayta tizimlashtirish haqida gapirish

mumkin. Budget daromadlarini shakllantirishda firmalar va uy xo'jaliklari shaxsiy tasarrufidagi daromadlarining muvozanatli taqsimlanishi hamda ularning istemol, jamg'arish normalarining o'sishiga nisbatan neytral bo'lgan soliq siyosatini yuritish orqali iqtisodiy siklning barcha stansionar vaziyatlarida yalpi talabni barqaror rag'batlantirish tizmini shakllantirish zarurdir.

Iqtisodchi olim L.N. Xazratqulovning fikricha, mahalliy budgetning barqarorligi yuqori budgetlardan quyi budgetlarga ularga yuklatilgan xarajat majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish uchun o'tkazib beriladigan va ajratiladigan budget resurslarga nisbatan mustaqilligidir [3].

Hududlarning moliyaviy va budget barqarorligi masalalarida keng tadqiqot olib borayotgan Rossiyalik iqtisodchi R.M. Tuxtabullin munitsipalitetlar (mahalliy davlat hokimiyati organlari) moliyaviy barqarorligi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan xarajat va qarz majburiyatlarini xususiy budget mablag'lari, munitsipal mulklar, qonunchilik bo'yicha belgilangan miqdordan oshmagan holdagi yangi munitsipal qarz majburiyatlari hisobiga qoplash imkoniyati sifatida ta'riflaydi. Bunda budget barqarorligiga moliyaviy barqarorlikning tarkibiy komponenti sifatida yoritiladi [4].

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy barqarorligiga ushbu yondashuvdagi berilgan tariflarda hududiy davlat hokimiyati organlari uchun qarz mablag'larni jalb qilish vakolatiga asoslangan holda budget barqarorligiga nisbatan keng tushuncha sifatida yondashilgan.

Iqtisodchilar Richard Masgreyv va Alan Pikoklar o'zlarining "Ijtimoiy moliya nazariyasi klassikasi" nomli asarida davlat xarajatlarining o'sib borish qonuniyati -deb nomlashgan [5]. Davlat sektorini kengayishi uzoq muddatli davrda aholining turmush farovonligini oshirilishi hisobiga davlat xizmatlari uchun ehtiyojning kengayishiga bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, budget barqarorligining ushbu qonun nuqtayi nazardan ko'rib o'tadigan bo'lsak, jami budget xarajatlarining sezilarli qismini rivojlanish budgetiga sarflash va joriy budget xarajatlari esa yaqin istiqbolda mamlakatdagi yalpi talabni rag'batlantirishi natijasida milliy daromadning o'sishini ta'minlaydi. Natijada milliy daromadni fiskal instrumentlar orqali qayta taqsimlash orqali davlat budgetiga keyingi stansionar davrda daromadlarni shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun ham A. Vagner va R. Masgreyvlarning ilmiy qarashlarini budget barqarorligini ta'minlashning xarajat komponenti deb nomlanadi.

Budget tizimi budgetlari barqarorligi konsepsiyasining keng spektrdaligi, uning asosiy xususiyati – soliq to'lovchilarning ehtiyojlarini qondirishni baholashga vaqtinchalik yondashuvda (hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda) namoyon bo'ladi. Aksincha, uni qarzning barqarorligi nuqtayi nazaridan tavsiflovchi to'lov qobiliyati va likvidlik tushunchalari fiskal pozitsiyaning torroq tushunchasi bilan aniqroq tavsiflanadi (fiscal position) [6].

Rossiyalik iqtisodilar A.A. Mixaylova va Ye.N. Timushevlar mahalliy budgetlar barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni umumlashtirgan holda 3 guruhga ajratadilar. Ularning fikricha budget barqarorligining asosiy komponentlari: institutsional, budget va iqtisodiy komponentlarini tizimlashtirishgan [7].

Mahalliy budjetlar barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning budjet komponenti budjet munosabatlarini tashkil qilishning shakl va usullariga oid masalalarni o'zida mujassamlashtirib ularni umumiy tarzda professor T.S. Malikov 3 asosiy turkumga ajratadi: (a) davlat budjetining daromadlarini shakllantirish; (b) budjet daromadlarini budjet tizimi budjetlari o'rtasida qayta taqsimlash; (v) davlat budjeti xarajatlari tizimi [8]. Mahalliy budjetlar barqarorligining budjet komponenti yuqoridagilarga asoslangan holda daromadlarni shakllantirish, ularni qayta taqsimlash va budjet xarajatlari tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Rossiyalik iqtisodchi A.A. Nikiforova mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini yo'qotishi riski va ular xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar sifatida quyidagilarni tizimlashtirib o'tadi [9]: mahalliy budjetlarning soliq salohiyati va natijada yetarli daromad manbaiga ega bo'lmashligi orqali ular mustaqilligini yo'qolishiga olib keluvchi federal va hududlar darajasida qabul qilinadigan qonunchilik aktlari; budjet tizimining boshqa darajalariga o'tkazilishi hisobiga munitsipal mulkchilik hajmining qisqarishi; iqtisodiyotdagi, moliya va pul kredit tizimidagi nobarqarorlik holatlarining kuzatilishi.

Iqtisodchi X.A. Kurbonov [10] xarajatlarni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi va birlashtirilishi bir qator davlat vakolatlari bo'yicha boshqaruv predmetlari (davlat funksiyalari) o'zaro taqsimlanishiga asoslanishini e'tirof etib, ularni quyidagi 3 turkumga ajratadi:

- me'yoriy-huquqiy tartibga solish bo'yicha vakolatlar;
- moliyaviy ta'minlash bo'yicha vakolatlar;
- ijro etish bo'yicha vakolatlar.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy budjetlarda moliyaviy barqarorlikni pul oqimlarining siklik tebranishlar bilan bog'liq zahirasini shakllantirish tizimi nazarda tutiladi. Amaldagi budjet qonunchiligida ushbu moliyaviy barqarorlikni determinanti sifatida rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan kassa tafovutlarini muvofiqlashtirishning tizimli mexanizmi bo'yicha qator moliyaviy instrumentlari: aylanma kassa mablag'i me'yori; erkin pul qodirlari va budjet ssudalari mexanizmidan foydalanilib, ular asosan mahalliy budjetlardagi qisqa muddatli likvidlikni boshqarish mexanizmi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar


Davlat funksiyalari bo'yicha vakolatlarning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlanishi ularning ixtiyorida shakllantiriladigan budjetlar o'rtasida xarajatlar taqsimlanishiga va xarajatlarga asoslangan holda daromadlarni birlashtirilishiga hamda daromadlarning qayta taqsimlanish tizimi instrumentlaridan foydalanish darajasiga asos bo'ladi.

Umuman, davlat budjeti xarajatlarning tarkibi va dinamikasini ko'rib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston respublikasi davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari asosiy salmoqni (2018-yil- 56,35 %dan 2022-yilda-49,12 %ga) [13] tashkil qilmoqda.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining yagona standartlarini Respublika bo'yicha ta'minlash va me'yoriy-huquqiy tartibga solish bo'yicha vakolatlar markazi hukumatga tegishli bo'lsa-da, uni moliyaviy ta'minlash va ijro etish bo'yicha vakolatlarning mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolati

hisoblanib, bu o‘z navbatida ushbu xarajatlarni mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtirishni taqozo qiladi. Ushbu xarajatlarning zalmorli yukini mahalliy budjetlarga tushishi ularning moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Garchi, tahlil qilinayotgan davrda markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarining dinamik o‘sishi hisobiga (5-ilovaga qarang) ularning davlat budjeti xarajatlari tarkibidagi ulushi ortib borayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy sohadagi yuqori xarajatlar ulushi mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash orqali ular moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qiladi.



1-rasm. Jami davlat budjeti xarajatlarida (maqsadli jamg‘armalarsiz) Respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarining ulushi (transfertlarsiz), jamiga nisbatan foizda. [13]

Bundan tashqari boshqa xarajatlar tarkibida ijro etuvchi markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining zahira jamg‘armalarini shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlarning salmoqli ulushi mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligining mustahkam moliyaviy zaminini o‘zida mujassamlashtiradi. Boshqa xarajatlar tarkibidagi mahalliy budjetlar uchun ijtimoiy tranfertlar salmog‘ning ham ortib borishi mahalliy budjetlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblansa-da, barqaror biriktirilgan daromad bazasini shakllantirish ral holatlar barqarorlikning mustahkam zamini hisoblanadi.

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, jami davlat budjeti xarajatlarining 2018-yilda 59 foizi Respublika budjetining xarajalariga to‘g‘ri kelsa, 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 73,4 foizga yetgan. Lekin shuni ta’kidlash joizki, ushbu xarajatlar tarkibida mahalliy davlat hokimiyati organlari moliyaviy barqarorligining o‘ziga xos ravishdagi “Himoya yostig‘i” hisoblanuvchi zahira jamg‘armalarini shakllantirish va ijtimoiy transfertlarni hm o‘z ichiga olgan. Garchi, ijtimoiy sohadagi xizmatlarning standart hajmini tenglashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy transfertlar Respublika budjeti uchun xarajat sifatida hisobga olinsa, mahalliy budjetlar uchun ular tegishli jarajatlarni moliyaviy ta’minlash uchun yuqori budjetdan ajratiladigan moliyaviy yordam sifatida hisobga olinadi. Demak, tabiiy ravishda xarajat majburiyatlarini qoplashga yuqori budjetdan ajratiladigan ushbu moliyaviy yordam mahalliy budjetlar uchun o‘ziga xos ravishdagi daromad funksiyasini

bajarishini ko‘rishimiz mumkin. Ijtmoy transfertlarni manzilli va maqsadli xarajatlarga ajratilishini inbatga oladigan bo‘lsak, bunda mahalliy davlat hokimiyati organlari hududlardagi aniq manzilli xarajatlarni moliyalashtirishda ularga ajratiladigan ijtimoiy transfertlar nuqtayi nazaridan “tranzit” vazifasini bajarishi namoyon bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti tasdiqlashicha, davlat xarajatlarining mahalliy darajada ijrosini ta‘minlash bilan birga shunday xarajat majburiyatlari saqlanib qoladiki, ularni mahalliy davlat hokimiyati organlariga xarajat majburiyati sifatida berilmaydi. Bunday xarajatlar markaziy hokimiyat organlari tomonidan moliyalashtiriladi. Mazkur xarajatlarning markaziy darajada amalga oshirilishi, ma‘lum sohalar uchun markaziy hokimiyat organlari tomonidan minimal umummilliy me‘yorlar va andozalar o‘rnatilishi bilan ham belgilanadi [11]. Mahalliy hokimiyat organlari mazkur me‘yorlar va andozalarning hududiy ta‘minotini shakllantirish va moliyalashtirish vazifalarini bajaradilar.

Respublika budjeti xarajatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bir tomondan davlat budjeti xarajatlarining ma‘lum bir qismi respublika budjetiga xarajat majburiyati sifatida yuklatilgan bo‘lib, ikkinchi yirik xarajatlar guruhi sifatida hududlardagi mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan xarajatlar hisoblanadi.

Davlatning umumiy budjet strategiyasini tashkil qiluvchi davlat va mahalliy budjet xarajatlari samaradorligini ta‘minlashda minimum 3 asosiy parametr inobatga olinadi:

- xarajatlarning ma‘lum moddalari bo‘yicha moliyaviy qo‘yilmalarning hajmi;
- xarajat moddalari bo‘yicha qo‘yilmalardan qaytim davri (ijtimoiy yoki iqtisodiy samaradorlik davri);
- budjet mablag‘larini taqsimlash natijasida jamiyat oladigan ijtimoiy yoki iqtisodiy nafililikning miqdori.

Tabii ravishda, budjet xarajatlarining asosiy qismi “Nobozor” deb nomlanuvchi xizmatlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilib, ushbu xarajatlar yo‘naltirilgan sohalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy qaytim doimo ham kuzatilmaydi. Lekin ular mamlakat hududlar YAHMning o‘shiga bevosita ta‘sir etishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu xarajatlarning hududlar kesimida qay darajada amalga oshirilganligi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlanishini ta‘minlashga davlat siyosatining yo‘naltirilganlik darajasini belgilaydi.

Umumiy kontekstda mahalliy budjetlar xarajatlarining tarkibi va dinamikasini tahlilini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak quyidagi manzarani guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jami mahalliy budjetlar xarajatlari nominal qiymati 2018-yilda 25485,5 mlrd so‘mni tashkil qilib 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 57149,2 mlrd. so‘mga o‘sgan. Bunda solishtirilayotgan davrlarga nisbatan jami xarajatlarning o‘shishi 224,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, Buxoro (229,5 foiz), Qashqadaryo (248,9 foiz), Namangan (235,9 foiz), Surxondaryo (236,9 foiz) va Toshkent shahrida (254,1 foiz) xarajatlarning o‘shish sur‘ati yetakchilik qilgan (1-jadval).

1-jadval

Mahalliy budjetlar xarajatlari to‘g‘risida ma‘lumot, mlrd. so‘m Hududlar/	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022

Qorqalpog‘iston Respublikasi	1740	3897,9	3542	2915,6	3874,2
Andijon viloyati	2162,1	4510,4	3708	3228,8	4741,6
Buxoro viloyati	1458,4	3107,5	3103,5	2375,4	3347,3
Jizzax viloyati	1153,8	2534,6	2057,7	1702,9	2551,8
Qashqadaryo viloyati	2223,5	4415,2	4603,2	4147,6	5534,2
Navoiy viloyati	999,2	2280,3	1818,2	1535,8	2186,3
Namangan viloyati	1953,7	3921,5	3776,9	3254,5	4607,9
Samarqad viloyati	2629,9	5147,3	3811,6	3759,7	4963,7
Surxondaryo viloyati	1879,9	3721,2	3246,6	3048,3	4453,9
Sirdaryo viloyati	806,3	1725,4	2375,6	1279,9	1777,7
Toshkent viloyati	2066,8	4225,8	3387	3009,8	4378,9
Farg‘ona viloyati	2621,3	4962,7	4132,1	3815,1	5619,9
Xorazm viloyati	1411,7	2727,6	2278,9	2075,6	3067,2
Toshkent shahri	2378,9	4976,5	5350	4068,6	6044,6
Jami	25485,5	52154	47190,75	40217,5	57149,2

Manba: www.mf.uz-rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mahalliy budjetlar xarajatlarining ushbu dinamik o‘shishi ular moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun mustahkam daromad bazasini shakllantirishni talab qiladi.

Mahalliy budjetlar xarajatlarining o‘shish sur‘atida “Markaz-hudud” gorizontida ular moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan daromad bazasini mustahkamlash siyosati mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqiligini ta’minlash nuqtayi nazaridan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi:

Birinchidan, o‘shib borayotgan mahalliy budjet xarajatlarni to‘liq va o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida mahalliy soliqlar va yig‘imlar soni hamda tushumlar hajmini oshirish. Bu asosan, umumdavlat soliqlarining ayrim turlarini mahalliy budjetlarga doimiy birlashtirilgan daromad sifatida belgilanishi va ular bo‘yicha yig‘iluvchanlik darajasini oshirish, soliq bazasini kengaytirish hisobiga yillik tushumlar miqdorini oshirish.

Ikkinchidan, hudud iqtisodiy salohiyati hisobiga shakllanadigan umumdavlat soliqlarini meyoriy ajratmalar orqali taqsimlash, o‘tkazib beriladigan daromadlar hisobiga qo‘shimcha daromatlarni shakllantirish.

Uchinchidan, tartibga soluvchi daromadlarni (ijtimoiy transfertlar, budjet ssudalari) o‘tkazib berish hisobiga mahalliy budjetlar xarajat majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida moliyalashtirishni tashkil qilish.

Yuqoridagi tadbirlar kompleksi qatorida birinchi yo‘nalish mahalliy budjetlar moliyaviy mustahqilligini ta’minlashga mustahkam zamin yaratish imkoniyatlariga egaligini aksariyat iqtisodchilar tasdiqlaydilar.

2-jadval


Mahalliy budjetlar xarajatlari to'g'risida ma'lumot, jamiga nisbatan foizda

Hududlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Qorqalpog'iston Respublikasi	6,8	7,5	7,5	7,2	6,8
Andijon viloyati	8,5	8,6	7,9	8,0	8,3
Buxoro viloyati	5,7	6,0	6,6	5,9	5,9
Jizzax viloyati	4,5	4,9	4,4	4,2	4,5
Qashqadaryo viloyati	8,7	8,5	9,8	10,3	9,7
Navoiy viloyati	3,9	4,4	3,9	3,8	3,8
Namangan viloyati	7,7	7,5	8,0	8,1	8,1
Samarqad viloyati	10,3	9,9	8,1	9,3	8,7
Surxondaryo viloyati	7,4	7,1	6,9	7,6	7,8
Sirdaryo viloyati	3,2	3,3	5,0	3,2	3,1
Toshkent viloyati	8,1	8,1	7,2	7,5	7,7
Farg'ona viloyati	10,3	9,5	8,8	9,5	9,8
Xorazm viloyati	5,5	5,2	4,8	5,2	5,4
Toshkent shahri	9,3	9,5	11,3	10,1	10,6
Jami	100	100	100	100	100

Manba: www.mf.uz-rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mahalliy budjetlar xarajatlarining dinamik o'sishi natijasida 2022-yilga kelib jami mahalliy budjetlar xarajatlarini hududlar kesimidagi ulushida o'zgarish kuzatilgan. Xususan, 2018-yilda jami mahalliy budjetlar xarajatlarida 9 foiz (teng taqsimlanishi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich) ulushdan yuqori ko'rsatkich Samarqand (10,3 foiz), Farg'ona (10,3 foiz), Toshkent shahrida (9,3 foiz) kuzatilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich Qashqadaryo (9,7 foiz), Farg'ona (9,8 foiz) viloyatlarida va Toshkent shahrida (10,6 foiz) kuzatilmogda. Ushbu taqsimot ko'rsatkichlariga asosiy ta'sir etuvchi omil mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar asosidagi hududiy davlat ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar va dvlrat ijtimoiy xizmatlariga ehtiyojmand aholini taqsimlanishidagi hududiy tafovutni hisoblash mumkin.

Demak, xarajatlarni nominal qiymati bo'yicha hududlar kesimida nisbatan taqsimotni ko'rishimiz mumkin. Bu bir tomondan, mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligin xarajat elementlari bo'yicha tartibga solishda nisbatan qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradi.



2-rasm. Aholi jon boshiga mahalliy byujetlar xarajatlarining Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi.

Manba: www.mf.uz-rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Aholi jon boshiga mahalliy byujetlar xarajatlarining Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 2018-yilda 780,4 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-2021-yillarda ushbu ko'rsatkich pasayish tendensiyasini namoyon qilgan, 2022-yilda esa ushbu ko'rsatkich o'sib borib 1620,3 ming so'mni tashkil qilgan. Ushbu xarajat ko'rsatkichini Respublika hududlari bo'yicha ko'rib o'tadigan bo'lsak, 2018-yilda o'rtacha ko'rsatkichdan 6 ta hudud ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi (944,5 ming so'm), Jizzax (870,8 ming so'm), Navoiy (1043,0 ming so'm), Sirdaryo (988,2 ming so'm), Xorazm (782,1 ming so'm) viloyatlari va Toshkent shahri (965,1 ming so'm) yuqori ko'rsatkichni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Aholi jon boshiga mahalliy budjetlar xarajatlar ulushi to'g'risida ma'lumot, ming so'm

Hududlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Qoraqalpog'iston Respublikasi	944,5	2084,7	1865,9	1515,6	1988,3
Andijon viloyati	717,9	1470,7	1185,5	1012,8	1457,4
Buxoro viloyati	779,8	1640	1613,1	1220,0	1693,3
Jizzax viloyati	870,8	1874,1	1488,8	1207,3	1767,9
Qashqadaryo viloyati	706,2	1374,1	1403,2	1243,5	1623,7
Navoiy viloyati	1043	2328	1823,5	1515,2	2114,6
Namangan viloyati	723,7	1424,5	1343,7	1135,0	1572,1
Samarqad viloyati	706,9	1354,9	983	952,4	1231,3
Surxondaryo viloyati	747,7	1448	1234,9	1137,1	1623,6
Sirdaryo viloyati	988,2	2079	2807	1486,7	2023,3
Toshkent viloyati	722,4	1457,9	1151,3	1011,4	1489,6
Farg'ona viloyati	724,1	1347,4	1101,3	998,7	1442,3
Xorazm viloyati	782,1	1485,9	1220,9	1096,3	1594
Toshkent shahri	965,1	1982,7	2080,3	1510,0	2111,7

Manba: www.mf.uz-rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2022-yilga kelib esa 8 ta hudud Qoraqalpog'iston Respublikasi (1988,3 ming so'm), Buxoro (1693,3 ming so'm), Jizzax (1767,9 ming so'm), Qashqadaryo (1623,7 ming so'm), Navoiy (2114,6 ming so'm), Surxondaryo (1623,6), Sirdaryo (2023,3 ming so'm), viloyatlari va Toshkent shahri (2111,7 ming so'm) yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, hududlar iqtisodiy salohiyati va aholining ijtimoiy qatlamlaridagi notekis taqsimlanish tendensiyasi jon boshiga mahalliy budjet xarajatlarining notekis taqsimlanishiga ta'sir etmoqda. Ikkinchidan, bu o'z navbatida mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuqori budjetdan ijtimoiy transfertlar ko'lamiga asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar

Aholi jon boshiga nisbatan mahalliy budjetlar xarajatlarining taqsimlanishidagi tafovut va xaotik tebranish kuzatilib, bu o'z navbatida mustahkam daromad bazasini shakllantirish orqali ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari mavjuddir.

Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ulushi yuqori bo'lgan hududlarda jon boshiga mahalliy budjetlar xarajatlarning ham respublika bo'yicha o'rtachadan yuqori ko'rsatkichni ta'minlayotganligi (Navoiy viloyati, Toshkent shahri) hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish davlat siyosati orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish imkoniyatlarining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Demak. Hudud iqtisodiy salohiyatini oshirish mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligida asosiy hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi xarajatlarga ta'sir etuvchi omil sifatida, hududlarda istiqomat qiluvchi aholining demografik va ijtimoiy tarkibi, xususan, jami aholi tarkibida mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojmand aholining nisbatan past ulushi asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Kapital budjet loyihalarini moliyalashtirishda "Markaz-hudud" gorizontida yirik va strategik loyihalarni markazlashgan moliyalashtirishda Respublika budjetining nisbatan hissasi yuqori bo'lgan.

Garchi, amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqlarning aniq turlarini mahalliy budjetlar kesimidagi taqsimlanish tizimi joriy etilgan bo'lsada, ushbu biriktirilgan soliqlar bo'yicha tushumlar hisobiga hududlar kesimidagi mahalliy budjetlarga biriktirilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish bilan bog'liq moliyaviy barqarorlikni ta'minlash riski mavjud bo'ladi.

Fikrimizcha, ijtimoiy-madaniy sohadagi xarajatlar tarkibidagi iqtisodiy tasnif bo'yicha kapital budjet elementini tashkil qiluvchi xarajatlarni to'liq viloyat budjetiga biriktirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barro R. J. (1990). Government spending in a simple model of endogenous growth. - journal of Political Economy, vol. 98, No. 5, pp. 103-126.
2. Aschauer D. (1989). Is public expenditure productive? - journal of Monetary Economics, vol. 23, No. 2, pp. 177-200.
3. Хазраткулова Л.Н. Анализ финансовой устойчивости местных бюджетов Республики Узбекистан // Региональные проблемы преобразования экономики, №8,

2019 г.

4. Тухбатуллин Р.М. К вопросу об оценке финансовой устойчивости муниципальных образований // Казанская наука. - 2017. - № 10. - С. 32-34.

5. [Musgrave R., Peacock A. Introduction](#) // Classics in the Theory of Public Finance.- London: Macmillan, 1958.- P. 244.

6. Schick A. Sustainable Budget Policy: Concepts and Approaches // OECD Journal on Budgeting. 2005. № 5(1). P. 107–126.

7. Михайлова А.А., Тимушев Е.Н. Бюджетная система России: насколько устойчива? Экономический журнал ВШЭ. 2020; 24(4): 572-597.

8. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –Т.: Noshir, 2012.- 712 b.

9. Никифорова А.А. Факторы финансовой устойчивости и безопасности местного бюджета // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности 08.00.10.- финансы, денежное обращение и кредит. Волгоград 2007.

10. Kurbonov X.A. O‘zbekistonda budjetlararo munosabatlar va uni takomillashtirish masalalari. Monografiya. -Т.: TDIU nashriyoti, 2011-у. - 69 b.

11. Лушин С.И., Слепов В.А. Государственные и муниципальные финансы. -М.: Экономист, 2003. – с. 246.

12. <https://www.investopedia.com/terms/c/crowdingouteffect.asp>.

13. www.mf.uz-rasmiy sayt ma’lumotlari.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

